



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 252 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik rehabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
<i>Xusanov Samariddin Maxmadaminovich</i>	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
<i>Yarashev Jo'rabek To'rayevich</i>	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
<i>Габдулманова Ильнура Минисламовна</i>	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
<i>Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи</i>	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
<i>Уразова М. Б., Усманова У. Б.</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–маҳалла" в Узбекистане ..	130
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
<i>Юсупова Зулайхо Бахром кизи</i>	
Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati.....	139
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	
O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi	142
<i>Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	145
<i>Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi</i>	
Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya	150
<i>Ergasheva Umrinisso Komilovna</i>	
Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirish omilidir.....	153
<i>Ermatova Gulnoz Pirimovna</i>	
O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni	156
<i>Gazibekova Feruza Hakimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi	159
<i>Haydarova Feruza Haydar qizi</i>	
Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi.....	162
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi.....	165
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish.....	168
<i>Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..	172
<i>Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari.....	175
<i>Masharipova Difuza Muxammadjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi	178
<i>Muhammadiyeva Feruza Turakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi	181
<i>Muhiddinova Munira Xayrullayevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	184
<i>Narzullayeva Sevara Omonovna</i>	
O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	187
<i>Nizamova Nodira Paxritdinovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi	191
<i>Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova</i>	



Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi	195
Nodira Sherboyeva	
Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida	198
O'ktam Nosirov	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi	204
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari	208
Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari	212
Sa'dullayeva Rushana	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	215
Saidova Dilbar Erkinovna	
Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari	218
Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi	
Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish	223
Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi	
Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi	226
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari	229
Yaqubova Shoiratog'aymuratovna	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	233
Yarmatov Raximboy Baxramovich	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	239
Zokirova Sohira Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	242
Марупова Дилфуза Давроновна	
Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari	247
F. R. Xosilova	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARDA KASBIY-NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna
NamDPI dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot nazariy va amaliy materiallar sintezi orqali o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Eksperimental mashg'ulotlar va intervyu natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy faolligi, so'z boyligi, muloqot jarayonlarida aniq ifodaga ega bo'lishlari hamda dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Maqola yakunida boshlang'ich sinf o'qituvchilari nutqiy saviyasini yuksaltirish bo'yicha metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faollik, interaktiv metodlar, pedagogik muloqot, kasbiy mahorat.

Abstract: This article examines the issues of forming and developing professional speech culture among future primary school teachers. The research synthesizes both theoretical and practical materials to identify effective strategies for enhancing teachers' communicative competence. Drawing on the results of experimental sessions and interviews, the study substantiates the need for focused efforts to improve speech activity, vocabulary and the use of innovative technologies in classroom practice. In conclusion, the article provides methodological recommendations for raising the level of speech competence among prospective primary school educators.

Key words: primary school teacher, speech culture, communicative competence, speech activity, interactive methods, pedagogical communication, professional mastery.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития профессионально-речевой культуры у будущих учителей начальных классов. Исследование, где теоретические и практические материалы были синтезированы, направлено на выявление эффективных путей развития коммуникативной компетенции педагогов. На основе результатов экспериментальных занятий и интервью автор обосновывает необходимость целенаправленной работы над речевой активностью, словарным запасом и использованием инновационных технологий в учебном процессе. В заключительной части статьи даются методические рекомендации по повышению уровня речевой компетентности будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: учитель начальных классов, речевая культура, коммуникативная компетенция, речевая активность, интерактивные методы, педагогическое общение, профессиональное мастерство.

KIRISH

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining shakllanish jarayonida kasbiy mahoratning ajralmas qismi sifatida nutq madaniyati alohida e'tiborga loyiqdir, chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim jarayonining ilk bosqichi-dayoq o'quvchilarga nafaqat asosiy bilim va ko'nikmalarni, balki madaniy muloqot, aniq ifoda hamda savol-javob mexanizmlariga doir dastlabki mahoratlarni ham singdirishi zarur. O'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida o'qituvchining nutqiy kompetensiyasi, aniq fikrni ifodalash mahorati, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda to'g'ri so'zlash qobiliyati ustuvor ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim siyosati kontekstida o'quvchilarga tekis, puxta va ravon nutq namunasini ko'rsatish, ilg'or pedagogik tamoyillarni qo'llash orqali amaliy natijalarni ta'minlash muhim sanaladi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy-nutq madaniyati, avvalo, o'qituvchining o'z fani yoki pedagogik vazifalari doirasida mazmunli va tushunarli nutq tuzishi, matn va ifodaning me'yoriy mezonlarga mos ravishda shakllantirilishi, turli yosh toifasidagi o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish jarayonining muloqot jihatlarini mukammal egallashni nazarda tutadi. Ushbu madaniyat tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va metodika sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'qituvchining shaxsiy madaniy saviyasi, kasbiy etukligi hamda ijtimoiy munosabatlardagi faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Xususan, pedagogik faoliyatning kommunikativ tomonlari o'qituvchidan faqat bilimlarni emas, balki tinglash, tushunish, izohlash, baholash, motivatsiya berish va ko'maklashish kabi tajribalarni ham talab etadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tajribaviy tadqiqot metodlarini, olingan natijalarni hamda muhokamalarni IMRaD uslubida yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida kasbiy-nutq madaniyatini namoyon etuvchi bir qator mezonlar va ko'rsatkichlar aniqlanib, ularning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni o'rganildi. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, shuningdek ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilindi. Maqola, bundan tashqari, kelgusida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlov dasturlariga nutq madaniyati elementlarini samarali integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy xulosalar berishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida, avvalo, kasbiy-nutq madaniyatiga taalluqli nazariy adabiyotlar o'rganildi. Bunda nutqiy kompetensiya va nutq madaniyati tushunchalarining tilshunoslik va pedagogika fanlaridagi definitsiyalari tahlil qilindi. Mazkur bosqichda yuqori malakali o'qituvchilarning nutqiy faoliyati haqidagi ilmiy maqolalar, monografik tadqiqotlar, mustaqil ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiya va lingvomadaniy kompetensiyaning rivojlanishida kuzatiladigan qonuniyatlarni aniqlashga qaratildi. Shuningdek, chet el tajribasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari nutqiy tayyorgarligida qo'llanadigan ilg'or metodlardan foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqotning empirik qismi ikki asosiy bosqichga ajratilib olib borildi. Birinchi bosqichda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida so'rovнома (intervyu) tashkil etildi. Ushbu bosqichning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyati haqida qay darajada tasavvurga ega ekanliklari, nutqiy faoliyatda uchrayotgan muammolar yoki qiyinchiliklarni aniqlashdan iborat bo'ldi. So'rovнома mazmuni sifat jihatdan tahlil qilindi, qatnashchilarning nutqiy faolligi, so'z boyligi, aniq va ravon ifoda berish mahorati, emotsional jihatdan muvozanatli muloqot qobiliyati kuzatildi. Shuningdek, ularning talaba sifatida o'qish jarayonida o'z ustida mustaqil ishlashi, ko'proq kitob mutolaasi yoki jamoat chiqishlarida ishtirok etishi kabi omillar ham e'tiborga olindi.

Ikkinchi bosqichda tajribaviy mashg'ulotlar va seminarlar tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilar turli uslubiy topshiriqlar, suhbatlar, rolli o'yinlar va amaliy nutqiy vazifalar orqali nutq madaniyatini amaliy takomillashtirishga yo'naltirildi. Mashg'ulotlarning mazmuni pedagogik muloqotda turli vaziyatlarni modellashtirish, dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot dinamikasini sinovdan o'tkazish, o'quvchilarning e'tiborini jalb etish hamda motivatsiya berish mahorati kabi ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutdi. Mashg'ulot davomida ishtirokchilar interaktiv o'yinlar, nutqiy ta'lim metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirildi. Xususan, "mini-dars" usulida har bir qatnashchi ma'lum bir mavzu bo'yicha qisqa muddatli darsni o'tkazib, jarayon davomida o'z nutqiy faoliyatini tahlil qildi va teskari aloqa oldi. Mashg'ulot yakunida ishtirokchilarning nutqiy faoliyati tahlil etilib, zarur tavsiyalar berildi.

Tadqiqot usullari sifatida kuzatuv, intervyu, eksperimental darslarni baholash, so'z boyligini va nutq sifatini lingvistik-me'yoriy tahlil qilish, psixologik-pedagogik baholash kabi yondashuvlar qo'llandi. Ma'lumotlar yig'ish jarayonida sifat va miqdor ko'rsatkichlari to'plandi, bu esa keyinchalik tajribaviy mashg'ulotlar samaradorligini aniqlash uchun imkon yaratdi. Olingan ma'lumotlar matematika-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy-nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha dastlabki xulosa qilishga asos bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajribaviy ishlanmalar natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish, eng avvalo, ularning o'z kasbiga bo'lgan munosabatiga chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. So'rovnomalar va intervyular jarayonida qatnashchilarning aksariyati yaxshi o'qituvchi o'z fanini yaxshi bilibgina qolmay, balki so'z boyligi keng, aniq ifodaga ega va muloqotni boshqarish mahorati yuqori bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Shu bilan birga, qator qatnashchilar nutqiy kamchiliklar yoki xijolat bo'lish, o'z fikrini kerakli paytda to'g'ri ifoda etishdagi qiyinchiliklar haqida ham so'z yuritdilar. Ushbu muammolar ko'pincha dars jarayonida orqa planda qolishi yoki amaliy mashg'ulotlar yetarlicha tashkil etilmasligi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Uslubiy



mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy faolligida yaqqol ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Dastlabki bosqichda ko'pchilik talabalarda izchil va ravon nutq qurish, matn tuzishda bog'lanish vositalaridan to'g'ri foydalanish, turli ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda mos ifoda topishdagi mahorat darajasi past bo'lsa, tajriba yakuniga kelib bu ko'nikmalar yaxshilandi. Shuningdek, interaktiv metodlardan foydalanish orqali qatnashchilar o'rtasida sog'lom raqobat, bir-birini tinglash, suhbatdoshning fikrini e'tiborga olish kabi madaniy muloqot unsurlari shakllandi. "Mini-dars" usulida har bir talaba o'z nutqiy me'yorlariga alohida e'tibor qaratishni, ortiqcha so'zlar yoki keraksiz pauzalarni minimallashtirish zarurligini angladi. Bu esa ularning ruhiy jihatdan o'sishiga, dars jarayonlarini ishonch bilan olib borishga zamin yaratdi. Eksperimental mashg'ulotlar yakunlari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kompetensiyasi rivojlangan sayin ular dars rejasini tuzishda kreativ yondashuvni ham ko'proq namoyon qila boshladi.

Xususan, o'quvchilarning faolligini oshirish, darsni qiziqarli va samarali tashkil qilish uchun nutqdan foydalanish mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq, tadqiqot jarayonida talabalarning aksariyati ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarga nisbatan tez va to'g'ri munosabat bildirish, savol-javoblarda faollik ko'rsatish va ko'proq mas'uliyatni his qilish kabi sifatlarni namoyon etgani kuzatuvchilar tomonidan qayd etildi. Muhokama Natijalardan ko'rinadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish uchun maxsus rejalashtirilgan, puxta o'ylangan uslubiy tadbirlar muhim hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashiga qulay shart-sharoit yaratish lozim. Ta'lim dargohlarida nutq madaniyatiga yo'naltirilgan qo'shimcha mashg'ulotlar, ijodiy to'garaklar, muhokamalar, munozaralar, sahna chiqishlari hamda badiiy asarlar ustida ishlash kabi faoliyat turlari bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini boyitishi mumkin, chunki bevosita amaliy ishtirok, eshitish va gapirish – ya'ni muloqotning har ikkala tomoni ham rivojlanishni ta'minlaydi. Kasbiy-nutq madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarning e'tiborini jalb etish, ularning ishtirokini rag'batlantirish, sinfdagi faoliyatni tashkil etish jarayonida bo'lajak o'qituvchi o'zi ham muvozanatli, madaniy, o'rnak bo'lish darajasida muloqot qila olishi zarur. Bunday yondashuv pedagogik muloqotni faqat talab va ko'rsatmalar majmui sifatida emas, balki bola bilan hamkorlik munosabatini shakllantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida namoyon etadi. O'qituvchining bunday roli o'quvchilarning darsdagi faolligiga, boshqalarning fikrini tinglash ko'nikmalarini shakllantirishga va muloqot mas'uliyatini his qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, kasbiy-nutq madaniyati – bu ta'lim jarayonidagi har bir so'z, ohang, munosabat, qiyofa va fikrning to'g'ri hamda o'rinli ifodalanishidan iborat tizim.

Muhokama jarayonida aniqlanganidek, bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy saviyasini oshirish ayniqsa universitetdagi nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishga bog'liq. Pedagogika nazariyasida zamonaviy metodlar, didaktik vositalar, interaktiv texnologiyalar, turli test va baholash uslublari haqida ma'lumotga ega bo'lishning o'zi kifoya emas, chunki o'qituvchining nutqiy kompetensiyasi ana shu nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda asosiy kommunikativ ko'prik vazifasini bajaradi. Shuning uchun metodik ko'nikmalarni shakllantirishda "qanday gapirish kerak", "qaysi ibora vaziyatga mos keladi", "bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib qanday tilda so'z yuritish maqsadga muvofiq" kabi savollarga javob topish muhimdir. Shu o'rinda, milliy til me'yorlari, o'zbek adabiy tili qonun-qoidalari, nutq estetikasi, tarjimaga oid ko'nikmalar, ifodaviy o'qish va notqlik san'ati kabi murakkab, lekin zarur komponentlarni o'quv dasturlariga singdirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotdan kelib chiqqan xulosa shuki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish uchun ketma-ketlikka asoslangan, bosqichma-bosqich puxta rejalashtirilgan uslubiy tadbirlar zarur. Shu bilan birga, bu jarayonda texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotgani ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Masalan, onlayn platformalarda turli o'qitish dasturlari, nutqiy treninglar, ovoz yozish va uni tahlil qilish kabi vositalar talabalarning mustaqil nutqiy mashq qilishiga, xatolarini qayta ko'rib chiqishiga, xulosa va tavsiyalarni amalda sinab ko'rishiga sharoit yaratadi. Bunday yondashuv yirik auditoriyalar oldida chiqishlarda xijolat bo'lish hissini pasaytirishi, o'qituvchining nutqiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, bu sohadagi yutuqlarga qaramay, hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar ham mavjud. Xususan, ayrim bo'lajak o'qituvchilar uchun tanqidiy fikrlashni namoyon etish hamda nutqiy kamchiliklarni to'g'rilash jarayoni davomida o'zini tahlil qilish malakasi sustligicha qolmoqda. Bu esa, avvalo, o'qituvchining o'z-o'zini baholash madaniyatini rivojlantirishni talab qiladi. Pedagogik jarayonda muhim o'rin tutadigan refleksiv (mulohaza yuritish) qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha individual yondashuvlar, ustoz-shogird munosabatlari, amaliyot davomida tajribali murabbiylar bilan birgalikdagi kuzatuv va tahlillar o'qituvchilarni bundan-da samarali natijalarga yetaklashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tajriba va tahlillarimiz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kasbiy-nutq madaniyati eng muhim kompetensiyalardan biri ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. O'quvchilarga bilim berish jarayonida muloqotning aniqligi, ifodaning ravonligi, fikrning lo'ndaligi, nutqning barkamolligi xususan



quyi sinflarda juda muhimdir. Bo'lajak o'qituvchilarda bu ko'nikmalarni shakllantirish esa nazariy va amaliy mashg'ulotlarning integratsiyasi, interaktiv usullarni joriy etish, pedagogik kommunikatsiya va notiqlik mahoratini izchil rivojlantirishni taqozo etadi. Tadqiqot yakunlari shuni ko'rsatadiki, reja asosida tashkil qilingan nutqiy mashg'ulotlar, "mini-dars" formatidagi chiqishlar, rolli o'yinlar, lingvistik ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan turli interaktiv mashqlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim praktikasida boshlang'ich sinf o'qituvchisi faqat bilim beruvchi emas, balki bola bilan muloqot qiluvchi, unga nazariyani tushuntiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi, ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi shaxs sifatida qaraladi. Shunday ekan, o'qituvchining nutqiy saviyasi va madaniyati uning kasbiy imidji, o'quvchilarga namuna bo'lish darajasi va ta'lim jarayonining umumiy sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etadi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kasbiy-nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratilishi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi zarur. Bunda, albatta, ta'lim muassasalarida metodik xizmatlarni rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy-metodik malakasini oshirish, turli xalqaro loyiha va dasturlardan foydalanish, chet tillaridan ijobiy tajriba olish orqali nutq madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Xulosa o'rnida aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, u bir vaqtning o'zida nazariy bilimlar, metodik qo'llab-quvvatlash, amaliy tajribalar va shaxsiy motivatsiyaning uyg'unlashuvi orqali samarali amalga oshadi. Pedagogikaning kommunikativ talablari yildan-yilga kuchayib borar ekan, o'qituvchilarning nutqiy saviyasi bilan bog'liq masalalar yanada dolzarb tus oladi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, reja asosida tizimli yondashuv, interaktiv mashg'ulotlarni to'g'ri tashkillashtirish hamda o'qituvchilarga tegishli metodik ko'makni ko'rsatish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-nutq kompetensiyasi va madaniyatini yanada yuksak darajaga olib chiqish real vazifa hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim sifatini takomillashtiradi, o'quvchilarni chuqur o'ylashga, o'z fikrini erkin ifoda etishga undaydi va umuman olganda, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy fazilatlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иномова Д.Р. Формирование коммуникативной компетентности у будущих учителей начальных классов / Д.Р. Иномова // Педагогические науки. – 2021. – № 6. – С. 45–52.
2. Рахимов Т.А. Речевая культура педагога: учебное пособие / Т.А. Рахимов. – Ташкент: Университет, 2019. – 156 с.
3. Назаров Ж.Ш. Интерактивные методы обучения в подготовке будущих учителей: монография / Ж.Ш. Назаров. – Ташкент: Фан, 2020. – 224 с.
4. Божович Л.И. Психологические особенности речевого развития младших школьников / Л.И. Божович // Вопросы психологии. – 2018. – № 5. – С. 33–39.
5. Hartley J. Academic Writing and Publishing: A Practical Handbook. – London: Routledge, 2008.
6. Xolmuxamedova S. Modern Approaches to Improving Speech Competence of Primary School Teachers / S. Xolmuxamedova // International Journal of Humanities and Education. – 2022. – Vol. 11, No. 2. – P. 78–85.
7. Шарипова М.Т. Инновационные технологии в речевом развитии учащихся начальных классов / М.Т. Шарипова // Вестник образования. – 2019. – № 2. – С. 21–26.
8. Қодиров А.Қ. Педагогик маҳорат асослари: методик қўлланма / А.Қ. Қодиров. – Тошкент: Нашр, 2021. – 180 б.
9. Жалолова Ф.Б. Теоретические основы культуры речи будущего учителя / Ф.Б. Жалолова // Образование и саморазвитие. – 2020. – Т. 12, № 1. – С. 95–103.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.